




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI**

O'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish

Ashurova Xusnora Ilxamovna

Andijon viloyati Jalquduq tumani 37-sonli umumiy o'rta
ta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Dunyoda ilmdan
boshqa najot yo‘q va
bo‘lmagay.**



Imom al-Buxoriy

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Mustaqil fikrlash-bu insonning o'z fikrini boshqalarning ta'sirisiz, mustaqil ravishda shakllantira olish, muammolarga o'z nuqtai nazaridan yondashish va xulosaga kelish qobiliyatidir.

Mustaqil fikrlovchi inson:
Axborotni tanqidiy tahlil qiladi, ya'ni eshitgan yoki o'qigan ma'lumotni darhol qabul qilmaydi, uni tekshiradi, solishtiradi va o'z fikrini shakllantiradi.

Ijodkorona yondashadi, yangi g'oyalar o'ylab topadi va muammolarga noodatiy yechimlar topadi.

Mas'uliyatli qaror qabul qiladi, chunki u boshqalarning fikriga ko'r-ko'rona ergashmaydi. O'z fikrini asoslay oladi, dalil va misollar keltira oladi.



“Ilmga toqati yo‘q xalq, qora mehnatga mahkum!”

Bugun dunyo misli ko‘rilmagan tezlikda rivojlanmoqda – sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish. Ammo bu taraqqiyotdan faqat bilimga intilganlarga foyda olmoqda.

Agar biz o‘zimizni va farzandlarimizni ilmga, o‘rganishga, yangilikka qiziqtirmasak – kelajakda ularning qismati faqat og‘ir mehnat, oddiy ishlardan iborat bo‘ladi.

O‘qishga erinadigan, o‘zini rivojlantirmaydigan inson zamonga quolsiz kiradi.

U har doim boshqalarning qoidalari bilan yashashga majbur bo‘ladi.

Bilimni tanlash – hayotni tanlash demak!

**Quyida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga chorlovchi
bir qator didaktik o'yinlarni ko'rishimiz mumkin**



YONDASHUV



**O'yin nomi
"Juftini top"**



**So'zlarning shakl va ma'no
munosabatiga ko'ra,**




**turlariga oid so'zlar
yoziladi**



**sinf doskasining ikki
tomoniga yopishtiriladi**




FIKRLASH QOBILIYATI




O'quvchilar kichik
guruhlarga bo'linib,
berilgan so'zlarning
juftini topadilar


Misol uchun
Achchiq-shirin
Yaxshi-yomon
Chiroyli- go'zal

Quvnoq barmoqchalarning kaftiga tasmaning bir uchi yopishtiriladi tasmaning ikkinchi uchi ikkinchi kaftga yopishtiriladi shu tariqa soʻzlarning jufti topiladi.






Juftini topping




Juftini topping



Mehnatkash asalari

O'quvchilarga
audio matn
eshittiriladi.



O'yin sharti



Har bir guruhga bittadan
asalari ini tarqatiladi.



O'quvchilar matn ketma-
ketligida inlarni yig'adi.




Shartni to'g'ri bajargan
guruh rag'batni qo'lga kiritadi.



Audio matn qayta
eshittiriladi.


2-sinf o'qish savodxonligi darsligidan “Uzum” hikoyasi



Bir kishi 4 nafar mardikorni ishlatibdi. Ularga ozgina pul berib, bu pulga biror narsa olib qorningizni to'ydiring debdi. Ishchilar pulni olishibdi. Fors ishchi “Men bu pulga **“angur”** olmoqchiman”-debdi. Ikkinchi ishchi arab ekan. U “Men bu pulga **“eynab”** olishni xohlayman”, - debdi. Uchinchi ishchi turk ekan. U “Men siz aytganlarning hech birini xohlamayman. Men **uzum** olmoqchiman”, - debdi. To'rtinchi ishchi esa rumlik ekan. U “Bekorchi gaplarni yig'ishtiringlar”-debdi. “Men bu pulga **“stafil”** olmoqchiman” - debdi. Shunday qilib, bir-birlarini tushunmay baqirib-chaqirishibdi. Oxiri janjal chiqibdi va bir-birlarini do'pposlay boshlashibdi. U yerdan o'tib ketayotgan bir odam bu janjalni ko'rib qolibdi. Ularni to'xtatibdi. U odam aqlli ekan. Janjalning sababini so'rabdi va har birini eshitibdi. Voqeani eshitgan bir odam ularni do'konga yetaklab olib boribdi. Ularga uzumni ko'rsatibdi. Har biridan alohida-alohida “Shuni xohlaysizmi?”- debdi. Ishchilarning hammasi “Ha” deb javob berishibdi.

Aslida ishchilarning hammasi bir narsani xohlashayotgan edi. Ular har xil tilda so'zlaganlari uchun bir-birlarini tushunishmagandi. Aqlli odam sotuvchidan ishchilarga uzum berishlarini so'rabdi. Ishchilar orasidagi janjal ham shu tarzda barham topibdi.


Audio matnni
tinglang



2_5269636903224751874.m4a



“MEHNATKASH ASALARI”



Bir kishi to'rt
mardikorni ishlatibdi.
Ularga ozgina pul
berib, bu pulga biror
narsa olib qorningizni
to'ydiring debdi.
Ishchilar pulni
olishibdi.

Voqeani eshitgan bir
odam ularni do'konga
yetaklab olib boribdi.
Ularga uzumni ko'rsatibdi.
Har biridan alohida-
alohida "Shuni
xohlaysizmi?"- debdi.
Ishchilarning hammasi
"Ha" deb javob berishibdi.

Fors ishchi "Men bu pulga
"angur" olmoqchiman"-
debdi. Ikkinchi ishchi arab
ekan. U "Men bu
pulga"eynab" olishni
xohlayman",-debdi.
Uchinchi ishchi turk ekan.

Aslida ishchilarning
hammasi bir narsani
xohlashayotgan edi. Ular
har xil tilda so'zlaganlari
uchun bir-birlarini
tushunishmagandi. Aqlli
odam sotuvchidan
ishchilarga uzum
berishlarini so'rabdi.
Ishchilar orasidagi janjal
ham shu tarzda barham
topibdi.

U yerdan o'tib
ketayotgan bir odam bu
janjalni ko'rib qolibdi.
Ularni to'xtatibdi. U odam
aqlli ekan. Janjalning
sababini so'rabdi va har
birini eshitibdi.

U "Men siz
aytganlarning hech birini
xohlamayman. Men
uzum olmoqchiman", -
debdi. To'rtinchi ishchi
esa rumlik ekan. U
"Bekorchi gaplarni
yig'ishtiringlar"-debdi.

"Men bu pulga "stafil"
olmoqchiman"-debdi.
Shunday qilib, bir –
birlarini tushunmay
baqirib-chaqirishibdi.
Oxiri janjal chiqibdi va
bir-birlarini do'pposlay
boshlashibdi.



O'quvchilar ko'z o'ngida audio matnni shakllantirishda ushbu didaktik o'yin orqali samarali natijaga erishish mumkin

• Ta'limiy



Bir vaqtning o'zida o'quvchi ham o'yin o'ynaydi ham mavzuni tushunib boradi.

• Rivojlantiruvchi



Ushbu audio matn orqali o'quvchilarga bir nechta chet tillarini bilishning ahamiyatini ham tushuntirib borish ko'zda tutilgan.

• Tarbiyaviy


SMART MAQSAD QO'YISHNI O'RGATISH



O'quvchilarga vaqtni qadrlash va undan to'g'ri foydalanishni o'rgatish uchun yuqoridagi sxema taqdim etiladi va uni o'quvchilar mustaqil ravishda to'ldiradilar






“Rasmlar tilsimi” didaktik o‘yini

O‘quvchilarga matn o‘qib eshittiriladi. So‘ng matnni o‘zida aks ettiruvchi rasmlarni kichik guruhlarga bo‘linib chizish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar matn mazmunini rasmlar asosida qayta hikoya qilib berishlari kerak bo‘ladi. O‘quvchilarga rasm chizish uchun har bir guruhga 6 talik tuxum chizmasi tarqatiladi.





AZIZANING ORZUSI

Aziza yaqin kunlarda oilaviy ta'tilni bobosi va buvisining uyida o'tkazishlarini, akasidan eshitib quvonchi ichiga sig'may ketdi. Aziza anchadan buyon qishloqda yashashni orzu qilayotgan edi. Uzoq kutilgan ta'til ham boshlandi. Azizaning akasi va ota-onasi qishloq tomon yo'l oldilar. Qishloqqa yaqinlashib borar ekan, Azizaning dimog'iga anvoyi gullarning isi mayin shabboda bilan birga asta sekin urila boshladi. Ularni kutib olish uchun bobosi va buvisining ostona oldida quvonch bilan boqib turgan nigohlari, anvoyi gullarning isi bilan qovushib ketdi. Aziza va uning akasi birgalikda ekan nihollar katta daraxt bo'lib allaqachon meva bera boshlagan edi. Olcha va erta pishar olmalardan to'yib-to'yib yeb bo'lgach, buvisining Baroq mushugi bilan kunni qanday o'tganini ham bilmay qoldilar. Ertasi kuni yomg'ir yog'ib ancha vaqt tashqariga chiqmay uyda o'tirdilar. Birdan akasining kamalak, kamalak degan qiyqirig'i olamni tutdi. Buvisining uyi uzra tog'lar bilan tutashib ketgan kamalak ranglari, go'yoki bog'da uchib yurgan kapalaklar bilan chiroyda bellashayotgandek edi. Shunday qilib bu galgi ta'til har doimgidan ham qizg'in o'tdi.




O'quvchilarga matnni o'qib eshittirilgandan so'ng, matn asosida
quyidagi jadvalga mos so'zlarni topib to'ldirish talab qilinadi.
O'quvchilar topshiriqni kichik guruhlarga bo'linib bajaradilar



"Sehrli kamalak" o'yini




v	a						
o	n	a					
v	a	q	t				
B	a	r	o	q			
d	a	r	a	x	t		
k	a	m	a	l	a	k	
m	u	s	t	a	q	i	l



“Mendan boshlab men bilan tugar” didaktik o‘yini

O‘quvchilarga istalgan bir harf aytiladi, misol uchun **A** harfi. O‘quvchilar **a** harfi bilan boshlanib **a** harfi bilan tugaydigan so‘zlarga misollar keltiradilar. Har bir guruh o‘zlari aytgan so‘zlari ishtirokida qisqa matn tuzadilar.





**O'quvchilar
misol qilib
keltirishi
mumkin bo'lgan
so'zlar**

**Amma, aka, alla, archa,
andoza, arra, avayla,
atama, alloma...**

“Birgalikda yanada oson” didaktik o‘yini

O‘yin shartiga ko‘ra o‘quvchilar quyida berilgan rasmdagidek bir qo‘llari bilan yonidagi sherigining qo‘lini ushlagan holda ikkinchi qo‘llari bilan bitta topshiriqni birgalikda bajaradilar.

Bunda asosiy maqsad o‘quvchilarni dos‘tona munosabat ruhida tarbiyalashdan iborat.





E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!